

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI YO'NALISHIDA TALABALARNI
ZAMONAVIY O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitish samaradorligini oshirish hamda mashg'ulot xonalariga qo'yilgan talablar haqida ma'lumotlar keltitib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о повышении эффективности обучения ОБЖ и требованиях к учебным помещениям.

Abstract. This article provides information on improving the effectiveness of teaching Life Safety and the requirements for training rooms.

Kalit so'z: Hayot faoliyati xavfsizligi, xavf, mashg'ulot xonasi, xavfsizlik, mehnat muhofazasi, xavfsizlik usullari, nazorat-o'lchov asboblari.

Ключевые слова: Безопасность жизнедеятельности, риск, учебный зал, безопасность, охрана труда, методы безопасности, контрольно-измерительные приборы.

Key words: Safety of life activity, risk, training room, safety, labor protection, safety methods, control and measuring devices.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishdan maqsad talabalarda kasbiy majburiyatlarini bajarish bilan birga bitiruvchi bakalavr va magistr (kelajakda turli sohalarda rahbar yoki mutaxassis vazifalari)ga ish joylaridagi ishchilarni shikastlanmasdan mehnat qilishi va ularni xavfsizligini yetarli darajada ta'minlash bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. O'quv fanining vazifasi ishchining shikastlanishi yoki uni kasallikka olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni minimallashtirgan holda ishchiga qulay mehnat sharoitini yaratish orqali mehnatning maksimal samarasiga erishishdir. Oliygozlarning "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasi bo'yicha dars berish va ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish sifatini yaxshilash uchun zamonaviy maxsus jihozlangan xona, auditoriya va o'quv sinflari talab etiladi. Shu munosabat bilan quyidagilar zarur:

1. Mehnat muhofazasi bo'yicha zamonaviy multimediya vositalari, nazorat-o'lchov asboblari, maketlar, manikenlar, sohalar yo'nalishi bo'yicha ishchilarning maxsus kiyim namunalari, yong'in xavfsizligi texnikasi va kiyimkechagi, elektron plakatlar, videomateriallar bilan jihozlangan "Mehnat muhofazasi" xonasini yaratish.

2. Turli sohalar bo'yicha xavfli obyektlar uchun zamonaviy multimediya vositalari, xavfli obyektlarni xavfsizlik parametrlarini o'lchash uchun nazorat-o'lchov asboblari, maketlar, elektron plakatlar, videomateriallar bilan jihozlangan "Sanoat xavfsizligi" maxsus auditoriyasini yaratish.

3. Zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan "Hayot faoliyati xavfsizligi laboratoriyasini" yaratish. Unda zamonaviy multimediya vositalari, radiatsiya va kimyoviy zararlanishni o'lchash uchun nazorat-o'lchov asboblari, zamonaviy shaxsiy himoya vositalari (gazniqoblar, respiratorlar, avariyaqutqaruv otryadlarining maxsus qutqaruv kiyimlari va h.k.), maketlar, elektron plakatlar, videomateriallar bo'lishi kerak.

"Mehnat muhofazasi" xonasi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlaydi:

- mehnat muhofazasi bo'yicha seminarlar, ma'ruzalar, suhbatlar va konsultatsiyalar o'tkazish;

- mehnat muhofazasi bo'yicha, Shuningdek, xavfsizlik usullari, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalarini qo'llash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish masalalarini o'rgatish;

- mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalar, mehnat muhofazasi va sanitar me'yorlar bo'yicha alohida bilim talab etiladigan ishchilar bilan tematik mashg'ulotlar o'tkazish va ularni bilimlarini tekshirish;

- xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish talablarini ishlab chiqish; - sog'lom va xavfsiz ish joylarini yaratish bo'yicha ko'rgazmalar, ekspozitsiyalar, stendlar, maketlar va boshqa turdagi ko'rgazmalarni tashkil qilish;

- korxonada (ish joylarida) mehnat sharoitlarini analitik tadqiqot qilish va ularni xavfsiz mehnat faoliyatiga ta'sirini baholash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mehnat muhofazasi xonasi quyidagilar bilan jihozlanishi kerak: mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy-texnik hujjatlar, o'quv dasturlari, uslubiy, direktiv va ishchilarga huquqiy masalalar, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in xavfsizligi masalalariga o'qitish, yo'riqnoma berish va maslahatlarga ega bo'lgan boshqa materiallar bilan; o'qishning texnik vositalari (audio, videoapparatura, kompyuter texnikasi, trenajyorlar, nazorat-o'lchov asboblari, shovqin o'lchagichlar, gazoanalizatorlar, manometrlar, lyuksmetrlar va h.k.); ko'rgazmali qurollar (plakatlar, sxemalar, maketlar, manekenlar, videofilmlar va xavfsizlik bo'yicha boshqa targ'ibot vositalari).



“Sanoat xavfsizligi” bo'yicha maxsus auditoriyani yaratishda masalan temir yo'l transportida xavfli ishlab chiqarish (texnologiya) obyektlari va asboblari, xavfli yuklarni tashish, yuklash-tushirish, to'kish va saqlash bilan bog'liq ichki temir

yo'llari joylashgan temir yo'l stantsiyalari va boshqa korxonalaridagi texnologik jarayonlar keltirilgan videomateriallar bo'lishi kerak. Bevosita temir yo'l transporti sohasida esa ichki temir yo'l relslari, shpallari, tormoz bashmaklari, shlanglar, portlashdan himoyalangan yoritish asboblari, o'ta xavfli yuklarni tashish uchun mo'ljallangan sisternalar va konteynerlar, xavfli yuklarni yetkazuvchi nasoslar, xavfli yuklarni omborlarda saqlash uchun rezervuarlar, temir yo'l da xavfli yuklarni tashish uchun vositalar (lokomotivlar, teplovozlar)ning maketlari. Shuningdek, suvning harorati 115 °C dan yuqori bo'lgan bug' qozonlari, bug' isitish qozonlari, energetik qozonlar, sodoregenerativ qozonlar, yuqori haroratda organik moddalar bilan ishlovchi qozonlar, vakum qozonlar, modul (blokli) qozonlar, Shuningdek, bosimi 0,07 mPa (0,7 kg/cm²) va harorati 115 °C dan yuqori bo'lgan bosim ostida ishlaydigan idishlar, qopqog'i tez ochiladigan idishlar, ko'p joyli barokameralar, ballonlar (avtoullov vositalari va qishloq xo'jaligi texnikasida foydalanilmaydigan), sisternalar, bug' va issiqlik quvurlari, minorali kranlar, portal kranlar, ko'priqli kranlar, strelali kranlar (avtomobil, temir yo'l, zanjirli, pnevmog'ildirakli, kran manipulyatorlar, quvur yotqizuvchi), kabelli kranlar, va boshqa qo'zg'almas asosdagi kranlar, elektrotallar, eskalatorlar, funikulyorlar, osmali po'lat plakatlari bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Hayot faoliyati xavfsizligi laboratoriyasini” yaratishda esa termoanemometr, lyuksmetr, shovqin o'lchagich, vibrometr, psixrometr shovqin o'lchagich (Shumomer), chang o'lchagich, yurak va o'pkani reanimatsiya qiluvchi trenajyori hamda elektr tarmog'ini yerga va nolga ulash stend-trenajyorini bo'lishi talab etiladi. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, turli oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarni kelgusida yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishlari uchun nafaqat zamonaviy moddiy-texnik bazalarning mavjudligi, balki mavjud texnologiyalardan mohirona foydalana oladigan, zamonaviy o'qitishning yuksak taktika va texnikasini egallagan malakali pedagog kadrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.R. YULDASHEV ,SH.G . DJABBAROVA , O.T.HASANOVA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

2. Kurbonov, A. (2023). "Orol dengizi havasidagi ekologik vaziyat-markaziy osiyo ekologik barqarorligiga tahdid" Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 160- 165.

3. Sattoriali o'g'li, K. A. (2023). MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI RADIOAKTIV CHIQINDILAR BILAN BOG 'LIQ EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.". Экономика и социум, 10, 113.

4. Азимов, Х. Г., Курбонов, А. С., & Мукимов, И. М. (2022). Атрофмухитнинг экологик жихатдан ифлосланиш муаммоларига оид тахлиллар. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 984-993.

5. Мамадалиев, Ш. М., & Рахмонов, Ш. В. (2023). ЧОРВАЧИЛИК ФЕРМАЛАРИДА МАШИНА ВА МЕХАНИЗМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА ХАВФСИЗЛИК ТЕХНИКАСИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(12), 117-126.

6. Мамадалиев, Ш. М., & Рахмонов, Ш. В. (2023). ЧОРВАЧИЛИК ХОДИМЛАРИ МЕХНАТИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ. Scientific Impulse, 2(16), 207-217.

7. <http://lex.uz>

8. ziyonet.uz